
Tomorqa - daromad manbai



Tomorqa - daromad manbai

Tomorqachilikni rivojlantirish va undan samarali foydalanishda ko'pni ko'rgan, hayotiy tajribaga ega bo'lgan insonlarning ko'rsatma va maslahatlari bugungi yoshlarga albatta, qo'l keladi. Zotan, tomorqa daromad manbaidir va har bir fuqaro shu hayotiy haqiqatni teran anglagan holda, undan samarali foydalanish yo'l va usullarini o'rganishi lozim. Sarikanda mahalla fuqarolar yig'inida yashovchi fuqaro Muhabbat-ota Azimov butun umrini qishloq xo'jaligi sohasiga bag'ishlagan mirishkorlardan. "Men hayotimning butun qismini shu sohaga bag'ishladim. Eski kolxoz va sovxozlarda ishlaganman. Sux tumani kartoshkachilikda sobiq Ittifoq davrida dovrug'i chiqqan hududlardan biri edi. Endi biz yoshlarimizga Sux kartoshkachilik maktabini tiklashga va uni rivojlanishiga ko'mak berishimiz lozim" - deydi biz bilan so'hbatda otaxon. Muhabbat-ota Azimovning erta ekilgan kartoshkasi allaqachon hosil berishni boshladi. Yoshlarni mehnatga jalb etish va ularni tomorqadan samarali foydalanishga yo'naltirishimiz lozim.

Sux tumani hokimligi Axborot xizmati

2020-05-27 18:03:58